



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

12-son (4-jild)

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

Nº 12 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2024

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00-TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahamatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy hodim, Imam Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00-IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanova – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti; Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizzon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00-FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'rroqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxkarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00-FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00-YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi

Sudyalar oliv kengashi huzuridagi Sudyalar oliv maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babajanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich - yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00-PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pyedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00-PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00-SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti; Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00-SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar bo'yicha dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

**Ijtimoiy-gumanitar fanlarning
dolzARB muammolari**” elektron jurnali
2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli
guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga
olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefonlar:
(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Turg'unov Sherzod Abduvositovich</i>	
FARG'ONA VILOYATI SANOAT KORXONALARINING MODDIY-TEXNIK HOLATI VA ULARNING SANOAT ISHCHILARINING MEHNAT MUHOFAZASIDAGI AHAMIYATI HAQIDA AYRIM FIKR MULOHAZALAR (Farg'ona viloyatida 1950-1970-yillarda chop etilgan vaqtli matbuot nashrlarida e'lon qilingan maqolalar tahlili asosida)	13-19
<i>Qalandarov Hamza Hamroqul o'g'li</i>	
SOVET HOKIMIYATINING O'ZBEKISTONDA YURITGAN ATEISTIK SIYOSATI VA XUDOSIZLAR JAMIYATI FAOLIYATI	20-23
<i>Berdiyev Abduvali Abdug'aniyevich</i>	
XVIII-XIX ASRLARDA XIVA XONLIGINING ERON VA ROSSIYA BILAN SIYOSIY VA IJTIMOIY ALOQALARI HAQIDA AYRIM MA'LUMOTLAR	24-32
<i>Сойиб Раупов</i>	
KAMBAFAALLIK VA UNI ҚИСҚАРТИРИШ MUAMMOLARI	33-42
<i>Abdimo'minov Oybek Bektemirovich</i>	
MARKAZIY OSIYO MINTAQASIGA ILMIY QARASHLAR VA KONSEPTUAL MASALALARNING AYRIM JIHATLARI	43-48
<i>Toshpulatov Nurbek Boboqul o'g'li</i>	
XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA SAMARQAND VILOYATI BOZORLARI VA KARVONSAROYLARI TARIXI	49-53
<i>Temirova Munira</i>	
ESKI TERMIZ SIMOBKO'ZACHALARI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR	54-58
<i>Sattorova Shahlo</i>	
SHAYBONIYLAR DAVRIDA JO'YBOR XO'JALARINING BUNYODKORLIK FAOLIYATI	59-63

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Yazdonova Saxiba Kurbanovna</i>	
KIBERMAKON: TA'LIM, TARBIYA VA IQTISODIY TA'SIR TENDENSIYALARI	64-72
<i>Таниев Аҳмаджон Баҳромовиҷ</i>	
ТУРИЗМ, ГЛОБАЛЛАШУВ ВА САВДО: УЛАРНИНГ АТРОФ-МУҲИТГА ТАЪСИРИ	73-82
<i>Ходжсаниязов Элбек Сардорович</i>	
ХОРАЗМ ВИЛОЯТИДА ТУРИЗМ ТРАНСПОРТИ ХИЗМАТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ОМИЛЛАРИ ТАҲЛИЛИ	83-93
<i>Raximov Baxromjon Ibroximovich, Ibrohimova Maqsuda Muhammadjon qizi</i>	
O'ZBEK SANOATINING INNOVATSION TARAQQIYOTI VA IQTISODIY O'SISHDAGI ROLI	94-99
<i>Ahmedov Adham Djalolovich</i>	
AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDA FUQAROLARNING O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARI FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISH	100-105
<i>Ablazov Nurillo Xusanboyevich</i>	
QURILISH KORXONALARI DEBITORLIK VA KREDITORLIK QARZLARINI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	106-112

<i>Abdurahmanov Muxtora</i>	
ХУДУДИЙ КЛАСТЕРНИ ШАКЛАНТИРИШ БОСҚИЧЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ	113-116
<i>Poshokulova Mohigul</i>	
БИЛИМЛАР ИКТИСОДИЙТИНГ ЗАМОНАВИЙ ШАКЛЛАРНИ МАКТАБГАЧА ВА МАКТАБ ТА'ЛИМ ТИЗИМИДА	117-122
<i>Toxirov Akbarxon Toirxon o'g'li</i>	
ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ QO'LLASH ORQALI KORXONANING ИКТИСОДИY ХАВФСИЗЛИГИНИ ТА'MINLASH: YANGI IMKONIYATLAR VA TAHDIDLAR	123-131
<i>Sayfutdinova Nigina Furkatovna</i>	
О'ЗБЕКИСТОНДА ИННОВАЦИЯЛАРНИ РИВОЈЛАНТИРИШ АСОСИЙ АҲАМИYАТЛАРИ	132-135
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Shakarov Oybek Xudoyberdi o'g'li</i>	
О'ЗБЕК XALQI ETOSFERASIDA KORRUPSION MUNOSABATLAR PAYDO BO'LISH САБАБЛАРИНГ FALSAFIY TAHLILI	136-139
<i>Жўрамуродов Нодир Гайбуллаевич</i>	
ЖАДИДЛАР ФАЛСАФАСИДА МИЛЛИЙ ФОЯ, МИЛЛИЙ ЎЗЛИК ВА МИЛЛИЙ ҚАРАШЛАРНИНГ ШАКЛЛАНИШИ	140-144
<i>Sayidova Muhabbat G'afforovna</i>	
GLOBAL AXBOROTLASHUV TENDENSIYALARINING MILLIY VA MA'NAVIY QADRIYATLARGA TA'SIRI	145-149
<i>Kuraxmedov Azamat Erkinovich</i>	
SAMARQAND JADIDCHILARINING TURKISTON MA'RIFATPARVARLIK FALSAFASI РИВОJIDA TUTGAN O'RNI	150-153
<i>Umarova Feruza Rozibayevna</i>	
О'ЗБЕК XALQI MA'NAVIY MADANIYATI RIVOJLANISHINING ASOSIY ХУСУСИYATLARI	154-156
<i>Samijonov Azizbek Ismoiljon o'g'li</i>	
KIBERXAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING FALSAFIY-KONSEPTUAL TAHLILI	157-161
<i>Begbudieva Parvina Shoxruxovna</i>	
THE CONTRIBUTION OF MAHMUDHODJA BEHBUDI TO THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF EDUCATION SYSTEM OF TURKESTAN	162-166
<i>Aytbayev Mansurbek Yusupovich</i>	
МАHMUD AZ-ZAMAXSHARIY AQZ-ZAKOVAT TO'G'RISIDA	167-173
<i>Muslimov Sherzod Akbarovich</i>	
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MA'NAVIY MEROSI: JAMIYAT, SIYOSAT VA SHE'RIYAT	174-178
<i>Jantayev Maqsud Ibragimovich</i>	
MUHAMMAD AL-XORAZMIY: МАТЕМАТИКАДАН FALSAFAGACHA BO'LGAN ILMIY IZLANISHLAR	179-184
<i>Norova Malika Fayzulloyevna</i>	
TASAVVUF TA'LIMITI VA UNING SAYFIDDIN BOXARZIY DUNYOQARASHIGA TA'SIRI	185-191

<i>Gulova Anorgul Axtamovna</i>	
O'ZBEKISTONDA ALISHER NAVOIY ASARLARIKA BO'LGAN MUNOSABAT	192-196
<i>Absattorov Baxtiyor Mamarasulovich, Karimova Gulchehra Abdukarimovna</i>	
BURCH VA MAS'ULIYAT TUSHUNCHALARINING TARIXIY-NAZARIY, AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY TALQINI	197-205
<i>Berdikulov Chingiz Dusmuradovich</i>	
IJTIMOIY MULOQOT-SHAXS INTELLEKTUAL MADANIYATINING SHAKLLANISH OMILI	206-211
<i>Mamarasulov Baxriddin Shakasimovich</i>	
MILLIY-MA'NAVIY YUKSALISH – MAMLAKATIMIZ MA'NAVIY TARBIYA TIZIMINING YANGI STRATEGIYASI SIFATIDA	212-216
<i>Nurmatov Kamaridin Shamsiyevich</i>	
JAMIyat TARAQQIYOTIDA ADOLAT TUSHUNCHASINING O'RNI	217-221
<i>Bekpo'latov Ulug'bek Rahmatulla o'g'li</i>	
JAMIyat TARAQQIYOTIDA SIMMETRIYA VA ASIMMETRIYA BIRLIGINI TA'MINLASHNING DIALEKTIK TAHLILI	222-228
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Бердиева Мукаррама Анваровна, Чернова Наталья Васильевна</i>	
СТРАТЕГИИ ЛИНГВОМЕТОДИЧЕСКОГО ПОДХОДА ДЛЯ ФОРМИРОВАНИЯ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ	229-234
<i>Жамаҳматов Каромиддин Айнилло ўғли</i>	
БУРХОНИДДИН ТЕРМИЗИЙ АСАРЛАРИНИНГ САЛЖУҚИЙЛАР ДАВРИДА ЯРАТИЛГАН ТАСАВВУФИЙ МАНБАЛАРГА ТАЪСИРИ	235-243
<i>Temirova Aziza Muzaffarovna, Uralova Oysuluv Poyan qizi</i>	
ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA "КО'К" SIFAT BELGISINING SEMANTIK XUSUSIYATLARINING TADQIQI	244-247
<i>Mansurova Mohinur Akmal qizi</i>	
HAJVIY TAFAKKUR TABIATI – SATIRA VA YUMOR TUSHUNCHASI	248-252
<i>Яркулова Фотима Усмановна, Исломова Марьям</i>	
ИМЕННОЕ ПРЕДЛОЖЕНИЕ В ПОВЕСТЯХ И.С.ТУРГЕНОВА	253-257
<i>Murodova Muqadas Ikromovna</i>	
XX ASR INGLIZ VA O'ZBEK ADABIYOTIDA YARATILGAN SATIRIK ASARLAR TADQIQI	258-263
<i>Ruzmatova Gulnara Kulmamatovna</i>	
O'ZBEK ADABIYOTIDA LATIFA JANRI TARAQQIYOTI VA TAHLLILI	264-268
<i>Davronov Shekroz Abrorovich</i>	
OG'ZAKI TARJIMA VA UNDA KOMPRESSIYANING ROLI	269-273
<i>Begmatov Azizbek Tursunbayevich</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI ONOMASTIK BIRLIKLER TADQIQI	274-280
<i>Ibragimova Moxiraxon Anvarovna</i>	
NUTQIY AKTLAR TASNIFI	281-285
<i>Расулова Истода Абдулатифовна</i>	
К ПРОБЛЕМЕ ДЕФИНИЦИИ ЯЗЫКОВЫХ УНИВЕРСАЛИЙ: ИССЛЕДОВАНИЕ ИНВАРИАНТНЫХ СВОЙСТВ В КОНТЕКСТЕ ЯЗЫКОВОЙ ВАРИАТИВНОСТИ	286-293

<i>Obidova Go'zalxon Ma'rufjon qizi</i>	
O'ZBEK TILIDA OMAD VA OMADSIZLIKNI NOMLOVCHI LEKSIK VA FRAZEOLOGIK BIRLIKAR	294-299
<i>Furkatova Maxliyo To'lqin qizi</i>	
O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI SHAXS-SON KATEGORIYASI	300-309
<i>Baxramov Xabibillo Sadikovich</i>	
INGLIZ TILIDA "POISON-ZAHAR" KONSEPTINING SEMANTIK XUSUSIYATLARI	310-315
<i>Tухтаев Сирожиддин Тошпўлатович</i>	
ПАРЕМИОЛОГИЯДА САХИЙЛИК КОНЦЕПТИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ	316-323
<i>Qiyomov Shohabbosxon Sharofiddin o'g'li</i>	
XATTOTLIK SAN'ATINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI	324-327
<i>Sobirjonova Muxlisa Sobirjonovna</i>	
YOLG'IZLIK FENOMENINING PSIXOLOGIK, IJTIMOIY VA EKZISTENSIAL ASPEKTLARI	328-331
<i>Qayumova Mohinur Murodullayevna</i>	
LEXICAL-SEMANTIC FEATURES OF THE CONCEPT «STEP» IN THE ENGLISH LANGUAGE	332-337
<i>Sayipova Dilafruz Rahimovna</i>	
O'ZBEK NASRI TARAQQIYOTIDA "BOBURNOMA"NING AHAMIYATI	338-342
<i>Diyarov Akmal To'lqin o'g'li</i>	
INGLIZ TILIDAGI BOG'DORCHILIK TERMINLARINING GENETIK-ETIMOLOGIK TAVSIFI	343-348
<i>Аманазарова Шохида Бахрамовна</i>	
РЕКЛАМАДА ИЛЛОКУЦИЯ ВА ПЕРЛОКУЦИЯНИНГ АМАЛГА ОШИШИДА БИЛБОРДЛАРНИ АҲАМИЯТИ (РЕКЛАМА БАННЕРЛАРИ МИСОЛИДА)	349-353
<i>Mamadqulova Kamila Abduxoliquovna</i>	
ANCIENT EGYPTIAN LITERATURE: THE OLD, MIDDLE AND NEW KINGDOMS	354-364
<i>Alimova Dilrabo</i>	
SHARQ ADABIYOTIDA QASIDANING TARIXIY TAKOMILI	365-373
<i>Abduqaxxorova Nargiza Rustamovna</i>	
RUS VA O'ZBEK TILLARIDAGI TOPISHMOQLARNING LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI	374-379
<i>Курбонова Нодира Розиковна, Пулатова Сабина Шарифовна</i>	
ЛИТЕРАТУРНЫЙ АНАЛИЗ ТЕМЫ УТРАЧЕННОЙ РОДИНЫ В РОМАНЕ ВЛАДИМИРА НАБОКОВА «МАШЕНЬКА»	380-390
<i>Khamidov Tohirjon Olmos ogli</i>	
ANALYSIS OF TYPES OF ENGLISH PHRASAL VERBS ACCORDING TO THE STRUCTURE	391-396
<i>Umurzakova Komuna Xursanovna</i>	
O'ZBEKİSTON İJTİMOİY TARMOQLARIDA YOSHLAR NUTQİDAGI O'ZGARISHNING TA'LIM JARAYONIGA TA'SIRI	397-402
<i>Habibullayeva Shoira Shukurillayevna</i>	
ONA TİLİ DARSIDA GAP BO'LAKLARI VA ULARNI TAHLİL QILISH METODİKASI	403-406

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Imomov Nurillo Fayzullayevich</i> ТА’MINLOVCHI TO’LOV – MAJBURIYATLARNI TA’MINLASHNING YANGI USULI SIFATIDA	407-414
<i>Салаев Нодирбек Сапарбаевич</i> ЖИНОЯТ ҲУҚУҚИДА ДЕКРИМИНАЛИЗАЦИЯ: МОҲИЯТИ, ТУРЛАРИ ВА АҲАМИЯТИ ХУСУСИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР	415-431
<i>Ходжиев Юнус Мухитдинович</i> МУЛК ҲУҚУҚИ БЕКОР БЎЛИШИНинг ШАХС ИХТИЁРИГА БОҒЛИҚ БЎЛМАГАН АСОСЛАРИНИ ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ ТАРТИБГА СОЛИШ	432-436
<i>Сайдивалиева Хуршида</i> БОЛАЛАРНИ ОИЛАГА ТАРБИЯГА БЕРИШ ЮЗАСИДАН ВУЖУДГА КЕЛУВЧИ МУНОСАБАТЛАРНИ КЕЛИШУВЛАР АСОСИДА ТАРТИБГА СОЛИШ МАСАЛАЛАРИ	437-445
<i>Miqutov Bobur</i> THE LEGAL NATURE OF E-COMMERCE IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	446-451
<i>Raimova Nargiza Doroyevna, To’ychiyeva Bahora Otabekovna</i> PREVENTING FALSE AND MANIPULATIVE ADVERTISING IN SOCIAL NETWORKS	452-459
<i>Чориева Хуршидабону Хуррам қизи</i> ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ВАСИЙЛИК ВА ҲОМИЙЛИК ОРГАНЛАРИНИНГ ҲУҚУҚЛАРИ ВА МАЖБУРИЯТЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ	460-468
<i>Toshkanov Nurbek Bahriiddinovich</i> UNDIRUVNI INTELLEKTUAL MULK OBYEKTALARIGA BO’LGAN HUQUQLARGA QARATISHNING AYRIM FUQAROLIK-HUQUQIY MASALALARI	469-478
<i>Kubaeva Ismigul Farxod qizi</i> CHALLENGES OF BLOCKCHAIN TO LAW AND STATE	479-484
<i>Юсупов Ўқтамбай Абсаматович</i> ДАВЛАТ ХАРИДЛАРИ СОҲАСИДАГИ КОРРУПЦИЯВИЙ ҲУҚУҚБУЗАРЛИККА ҚАРШИ КУРАШДА ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ УСУЛЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ	485-491
<i>Баходирова Сабина Улугбек кизи</i> РОЛЬ ЭКСПЕРТИЗЫ ПРИ КВАЛИФИКАЦИИ УМЫШЛЕННОГО ТЯЖКОГО ТЕЛЕСНОГО ПОВРЕЖДЕНИЯ	492-503
<i>Эгамбердиев Ферузбек Аскаржон угли</i> НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНСТИТУТА ХОДАТАЙСТВ КАК СПОСОБ ЗАЩИТЫ ПРАВ УЧАСТНИКОВ НА ДОСУДЕБНОМ ЭТАПЕ УГОЛОВНОГО ПРОЦЕССА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	504-508
<i>Ibrohimov Behzodbek Bahromjon o’g’li</i> O’ZBEKİSTONDA MOLİYAVİY HUQUQIY MUNOSABATLAR ASOSI VA AHAMIYATI	509-520
<i>To’ychiyeva Bahora Otabekovna, Raimova Nargiza Doroyevna</i> PREVENTING FALSE AND MANIPULATIVE ADVERTISING IN SOCIAL NETWORKS	521-528

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Ibraximov Sanjar Urumbayevich</i> SPORT MASHG'ULOT JARAYONINI TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY YO'LLARI VA TAMOYILLARI	529-539
<i>Urazkulova Anna Vitalyevna</i> OLIY TA'LIMDA RUS TILI FANINI O'QITISHDA MUSTAQIL TA'LIMNING TOPSHIRIQLARINI ILMIY-PEDAGOGIK AHAMIYATI	540-545
<i>Қаршиева Дилбар Эшулатовна</i> ПЕДАГОГИК КОМПЕТЕНЦИЯЛарни ШАКЛЛАНИШИДА МАЛАКАВИЙ АМАЛИЁТНИНГ ЎРНИ	546-550
<i>Ajiyeva Muxabbat Baxtibayevna</i> KIMYO FANI BO'YICHA MASHG'ULOTLARNI FANLARARO INTEGRATSIYA ASOSIDA TASHKIL ETISH	551-555
<i>Fayzullayeva Gulchexra Sharipboevna</i> O'QITUVCHILARNI KASBIY RIVOJLANTIRISHDA QIYOSIY TAHLIL: JARAYON VA FAOLIYATLI YONDASHUV	556-564
<i>Radjabova Gulnoza Giyosiddinovna</i> SHIFTING THE FOCUS OF CORPUS LINGUISTICS FROM RESEARCH TO CLASSROOM PRACTICE	565-570
<i>Акрамова Умеда Салиевна</i> ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИКТ ДЛЯ УЧАЩИХСЯ С НЕРУССКИМ ЯЗЫКОВЫМ ФОНОМ	571-582
<i>Abdusattarova Zaynab Abdujalil qizi</i> MATEMATIKA FANINI LOYIHAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYASI ORQALI O'QITISH ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA XXI ASR KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI	583-590
<i>Boboqulov Chori Urolovich</i> SHAXMAT O'YINI ORQALI BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	591-595
<i>To'xtayev Hasan Tosho'lalovich</i> ZAMONAVIY MAKTAB O'QUVCHILARINI MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHDA KOGNITIV- PSIXOLOGIK TO'SIQLARNING TA'SIRI	596-599
<i>Yaqubov Fazliddin Muxitdinovich</i> JISMONIY TARBIYA VA SPORT MUTAXASSISLARI KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING MEXANIZMLARINI TAKOMILLAHTIRISH	600-607
<i>Rahimova Dilshoda Baxriddinovna, Turatosheva Sadoqat Raxmatullayevna</i> OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISH (SOTSILOGIK TAHLIL)	608-615
<i>Мадаминова Наргизахон Жахонгир қизи</i> МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРГА МОСЛАШТИРИЛГАН ВИРТУАЛ ЎҚИТИШ УСУЛЛАРИ	616-619
<i>Qodirov Xasanboy Oribjonovich</i> RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA TEXNIKA OLIY TA'LIM SOHASI MUTAXASSISLARDA KASBIY-IJODIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	620-626

<i>Aliyeva Iroda Otabek qizi</i>	
МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМГА XORIJ TAJRIBASINI QO'LLASH BO'YICHA MAVJUD TA'LIM TALABLARINING TASNIFI YUZASIDAN TAHLILLAR	627-631
<i>Ro'zimurodov Ilyos Azamat o'g'li</i>	
О'RTA ASRLAR MARKAZIY OSIYO MUTAFAKKIRLARINING CHOLG'USHUNOSLIKKA OID NAZARIYALARI: ABU NASR FOROBIYNING MUSIQIY TADQIQOTLARI	632-636
<i>Yaxshiboyeva Shahnoza Bahodir qizi</i>	
JAHON AXBOROT RESURSLARI ORQALI TALABALARING TADQIQOTCHILIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK ASOSLARI	637-642
<i>Салиев Улугбек, Салиева Нигора</i>	
ОБЩЕНИЕ МЕДИЦИНСКОГО РАБОТНИКА: РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ В ПРАКТИКЕ	643-648
<i>Маматкулова Угилжон Эшмирза кизи, Абдуллаева Дилбар Алимбаевна</i>	
МЕТОДИЧЕСКАЯ ИНФОРМАЦИОННАЯ ПЛАТФОРМА ДЛЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА, ИЗУЧАЮЩИХ АНГЛИЙСКИЙ ЯЗЫК, И ПУТИ ЕЕ РЕАЛИЗАЦИИ	649-655
<i>Муминова Офтобхон Каримовна</i>	
ИСТОРИЯ ЛАТИНСКОГО ЯЗЫКА В МЕДИЦИНЕ: ОТ АНТИЧНОСТИ ДО СОВРЕМЕННЫХ ТЕРМИНОВ	656-661
<i>Ахмедова Уктамхон</i>	
РОЛЬ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЗАНЯТИЙ РУССКОГО ЯЗЫКА В МЕДИЦИНСКОМ ВУЗЕ	662-667
<i>Sattarova Markhabo Raxmonkulovna</i>	
TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH	668-672
<i>Nuriddinova Robiya Bekjonaliyevna</i>	
МАКТАБГАЧА VA BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MATEMATIKA MASHG'ULOTLARINING UZVIYLIGINI TA'MINLASH YO'NALISHLARI	673-678

Received: 30 November 2024

Accepted: 5 December 2024

Published: 15 December 2024

Article / Original Paper

THE DOCTRINE OF SUFISM AND ITS INFLUENCE ON SAIFIDDIN BOKHARZI'S WORLD VIEW

Norova Malika Fayzulloevna

Bukhara State University,

Teacher of the Department of Social and Political Sciences,

Doctor of Philosophy (PhD)

Abstract. This article analyzes the teachings of Sufism and its influence on Sayfiddin Boharzi's worldview.

Keywords: sufism, muhaddis, mutakallim, spirituality, enlightenment, thought, society, education.

TASAVVUF TA'LIMOTI VA UNING SAYFIDDIN BOXARZIY DUNYOQARASHIGA TA'SIRI

Norova Malika Fayzulloevna

Buxoro davlat universiteti

“Ijtimoiy-siyosiy fanlar” kafedrasasi o’qituvchisi,

falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada tasavvuf ta'limoti va uning Sayfiddin Boxarziy dunyoqarashiga ta'siri tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: tasavvuf, muhaddis, mutakallim, ma'naviyat, ma'rifat, tafakkur, jamiyat, ta'lim.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I12Y2024N29>

Kirish. Tasavvuf inson ruhiy-ma'naviy kamoli to'g'risidagi g'oyaviy-nazariy qarashlar, axloqiy qoidalar va ularni amalga oshirish yo'llari to'g'risidagi ta'limotdir [1]. So'fiylikni bir butun tizim deb olsak, u ikki: nazariy va amaliy qismga bo'linadi. Uning nazariy qismi tasavvufdir. Ko'pincha bu ikki tushuncha bir ma'noda ishlataladi. IX-XII asrlarda tasavvuf nazariyotchilari Muhosibiy, Junayd Bag'dodiy, Kalobodiy, Sarroj, Hujviriy, Sulamiylar tariqatni odob-axloq, ma'naviy-ruhiy qoida-ko'rsatmalari majmui deb hisoblashgan. Hujviriy "Kashful mahjub" asarida dastlabki o'n ikki so'fiy tariqatlari haqida ma'lumot bergan [2].

XII-XIV asrlarda tasavvufda asosiy 12 ta tariqat: rifoysi, yassaviya, shoziliya, suhravardiya, chishtiya, kubroviya, badaviya, qodiriya, mavlaviya, bektoshiya, xalvalatiya, naqshbandiya vujudga keldi [3]. Bunday yo'llardan O'rta Osiyoda yassaviylik [4], xojagon [5], kubroviylik [6], naqshbandiylik [7] va qodiriylilik [8] tariqatlari tarqalgan.

Tasavvuf o'rta asr falsafasidagi Qur'on va Sunna an'analariga asoslanuvchi yirik ta'limotlar sunniylik, shialik, mutakallimlik va mu'taziliylikka nisbatan musulmon madaniyati va ma'naviyati taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Tasavvuf islam aqidalari, qonun-

qidalarini qayta tahlil qilish imkonini berdi. Bu ta'limot o'rta asr falsafasida hurfikrlilik ko'rinishida ham namoyon bo'ldi. Shuning uchun ham Ye.E.Bertelsning: "Tasavvuf adabiyotini o'rganmasdan turib, o'rta asrlar musulmon Sharqi madaniyati haqida tasavvurga ega bo'lish mumkin emas. Bu adabiyotdan xabardor bo'lmasdan Sharqning o'zini ham anglash qiyin"[9], degan fikri asoslidir.

Dastlab tasavvuf maktablari Kufa, Bag'dod, Basra, Misr singari islom dini keng yoyilgan hududlarda tashkil topgan bo'lsa, butun islom olami miqyosida e'tirof etilgan Yassaviya, Xojagon-Naqshbandiya va Kubroviya tariqatlari Markaziy Osiyoda vujudga keldi va rivojlandi.

Asosiy qism. XIII asr boshida Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan zabardast mutasavvif donishmandlardan biri Najmuddin Kubro "Kubroviya" tariqatiga asos soldi. Najmuddin Kubroning(1145-1221) to'liq ismi Ahmad ibn Umar ibn Muhammad Xivaqiy al Xorazmiy bo'lib, u "Najmuddin" ("Dinning yulduzi"), "Kubro" ("Ulug"), "Abu-l-jannob" ("Dunyodan chetlanuvchi"), "valiytarosh" ("valiylarni tarbiyalovchi") nomlari bilan xalq ichida mashhur shayx, so'fiylikning ma'lum vakillaridan biri, kubroviylik tariqatining asoschisidir. Najmuddin Kubro 1145-yilda Xiva shahrida dunyoga kelgan. Abdurahmon Jomiyning "Nafahot al-uns" asarida Najmuddin Kubro Xorazmning ko'zga ko'ringan ulamolaridan o'zib ketib, ilmiy bahslarda g'olib chiqishi va unga "Tommat al-kubro", ya'ni ulamolarning yetugi, ulug'vori yoki "ilm balosi"[10] degan laqab berilishi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan. Najmuddin Kubro o'z zamonasining mashhur va kuchli shayxlaridan biri bo'lgan.

Dastlab kubroviya tariqati hadis va shariatga asoslangan bo'lib, Xuroson, Movarounnahr, Hindiston kabi davlatlarga tarqalgan. Bu haqida Faxriddin Ali-Safiy o'zining "Rashahot ayn-ul-hayot" asarida bayon etadi. Bunday fikrlarni Abdurahmon Jomiyda ham uchratamiz. Kubroviya ta'limoti barcha tasavvufiy ta'limotlar kabi insonni kamolotiga e'tibor beradigan insonshunoslik, nafsshunoslik, ruhiyatshunoslik ta'limotidir. Bu yo'lning o'ziga xos tomonlaridan biri unga latoiflar ta'limotiga maxsus e'tibor berilganidir. Boshqa tariqatlarda ham insonni izohlashda latif va kasif tushunchalari ishlatilsa-da, Najmuddin Kubro insonning ruhiy kechinmalari va nafis holatlarini mukammal bilganligi uchun "latoif" nazariyasini ishlab chiqadi. Latoif nazariyasiga muvofiq, inson ruhi ko'z ilg'amas latif markazlardan tashkil topgan. Bu inson ruhi va jismi, ongi va tuyg'usi orasidagi ko'z ilg'amas bir holat hisoblanadi. Buni ilg'ab olish juda mushkul. Lekin Najmuddin Kubro har bir so'fiyning aynan shu jihatlarini kuchaytirib borishi va anglashi kerakligini uqtiradi. Aynan shu "latoif" insonning ilohiy xislatlariga kiradi. So'fiy ustozni ko'rsatmalari assosida riyozat va harakatlari natijasida bu holatni turli o'zgarib boruvchi ranglar va holatlarda ko'rishi mumkin.

Najmuddin Kubro bu yetti raqni yetti tushuncha bilan asoslaydi. Oq rang – islomni, sariq rang – iymonni, zangori rang – ehsonni, yashil rang – ishonchni, ko'k rang – to'liq ishonch, qizil rang – irfonni, qora rang – hayajonni (hayrat) anglatadi [11].

Barcha tasavvufiy tariqatlarda zikr amaliyoti inson kamoloti uchun asosiydir. Kubroviylarda jahriy zikr bo'lib, murabba holatida zikr qilganlar. Usmon Turar falsafa tarixida buning genezesini Muhammad payg'ambar davriga borib taqalishini aytadi:

Hazrati Umar musulmon bo'lgan chog'ida Muhammad alayhissalom bilan quchoqlashar ekan, ul zot Umarga kalimai tavhidni jahriy talqin qiladilar. Ammo Hazrati Umar oyoqda turolmay o'tirgani uchun kubroviylar murabba holatida zikr qiladilar [12]. Yassaviya, qodiriya tariqatlarda ham jahriy zikr mavjud. Xojagon va naqshbandiyada esa zikri xufiya qabul qilingan. Manbalarda kubroviya tariqatida samo' majlislari ham bo'lib turishi yozilgan.

Jaloliddin Rumiy asoslagan mavlaviya ta'limotida esa samo' majlislari xosdir. Kubroviya ta'limotiga xos bo'lgan to'rt rukn haqida Professor G.N Navro'zova Naqshbandiya va kubroviyani qiyoslab, shunday yozadilar:

Birinchi rukn. Ishq-muhabbat. Najmuddin Kubro o'zining "Usuli ashara" yoki "Aqrabi tariqi illalloh" kitobida aytadiki, haqqa yetishishning eng yaqin yo'li ishq ahlining yo'lidir, chunki ular ishq-muhabbat, zavqu shavq va hayajonning zo'ridan holdan toyib, kuch-quvvat ularni tark etadi. Bu holat ibtidosida haq yo'li dilni zabit etuvchi jozibasi bilan o'zini unutgan, ya'ni baland arshi a'loga parvozga chorlaydi. Bundan ma'lum bo'ladiki, kubroviya tasavvufga xos bo'lgan orifona yo'lni emas, balkim oshiqona yo'lni tanlagan ekan. Naqshbandiyalar esa orifona yo'lda bo'lganlar.

Ikkinci rukn. Xilvatshinlik, zikr va riyozat. Najmuddin Kubro haqqa yetishish yo'lini (jazba va sukr) o'zlikdan voz kechish orqali o'zni fido etish, deb hisoblagani uchun ham o'z ta'limotida xilvatshinlik va Allohdan boshqa barcha dunyo tashvishlaridan mosuvoga, zikr va sukutga berilishini, nafsga qarshi kurashib, turli riyozat va mashaqqatlarga nisbatan sabr-qanoatli, chidamli, bardoshli bo'lishni ko'p targ'ib etadi. Tasavvufda inson kamolga yetishishning Junayd Bog'dodiyidan saqlangan sahv (hushyorlik) va Boyazid Bastomiydan kelayotgan sukr (behudlik), jazba, fano bo'lish yo'llari mavjud. Kubroviya tariqatida sukr, ya'ni behudlik xos bo'lsa, naqshbandiyalarga hushyorlik xosdir. Shuning uchun ham kubroviylarda xilvat, chilla mavjud bo'lsa, naqshbandiyalarda "anjumanda xilvat" qabul qilingan.

Uchinchi rukn. Shariat ahkomlarini aniq bajarish. Garchi Najmuddin Kubro tasavvufi Allah vasliga yetishish yo'lidiagi oshiqona tasavvuf bo'lib, sukr, jazba unda muhim o'rinn tutsada, lekin bu yo'lda ibodatga, ayniqsa, diniy urf-odat, marosim (farz)ga alohida e'tibor qaratilgan. U Allah yo'lida burch va muayyan vazifalardan o'zini soqit qilishni hech bir holatda yoki hech bir maqom, mansab, martaba orif-u zohid uchun joiz deb hisoblamagan. Bu qarashlar Naqshbandning talabalariga to'g'ri keladi. Ma'lum bo'ladiki, kubroviya tasavvufiy ta'limoti shariat va sunnatga amal qilganligi uchun maqbul tariqatlardan hisoblangan. Shariatga zid amal qilgan tariqatlar mardud bo'lib, rad etilgan. Shuning uchun ham tasavvuf olamida kubroviya va naqshbandiya tariqatlari mo'tadil tariqatlar sifatida mashhur bo'lgan. Ularda o'ngga va so'lga og'ish bo'lмаган.

To'rtinchi rukn. Xalqqa e'tibor va unga xizmat qilish kubroviyada mavjud. Bu tariqatda haqqa yetishish yo'lida xilvatshinlik, zikr, dunyo tashvishlaridan kechish va oxiratni o'ylash ko'p ta'kidansa-da, biroq uning tasavvufi tarkidunyo qilgan zohidlik tasavvufi emas, balki xalqqa e'tibor, mehr-muhabbat va unga xizmat qilish kabi irfoniy tushunchalarning eng muhim qismini tashkil qiladi [13]. Bu naqshbadiya bilan uyg'undir. Naqshbandlarda "Dast ba koru, dil ba yor" talabi asosida xalqqa xizmat asosiy shart hisoblanadi [14]. Shuningdek, qodiriya ta'limotida ham "Mashg'ullik ila forig'lik" shioriga amal qilinishi kubroviylar bilan uyg'unligini ko'rsatadi.

Kubroviya tariqatida o'nta maqom asosida tariqat manzillarini bosib o'tish va poklanib, ma'rifatga erishish yo'llari ko'rsatib o'tiladi. Bular: tavba, zuhd, tavakkul, qanoat, uzlat, zikr, tavajjuh, sabr, muraqqaba, rizo.

Demak, kubroviya tariqati va ta'limoti Najmuddin Kubro tomonidan asoslangan, tasavvufning mo'tadil, maqbul, sukr, oshiqona, latoiflar nazariyasiga va o'n maqomga asoslangan, jahriya zikr va samo' hamda xilvat, chilla (uzlat) amaliyoti xos bo'lgan kamolot yo'lidir. Kubroviyada xirqa kiyish mavjud bo'lgan.

Xalifalik davrida Bog'dod ilm-fan markazi, iqtisodiy va madaniy jihatdan rivojlangan yirik shahar tusiga kirdi. Bu yerda turli ilmiy anjumanlar, turli mamlakatlardan kelgan ilm vakillari tomonidan ilmiy muhokamalar uyuştiriladigan bo'ldi, ilm maskanlari barpo etildi, xattotlik rivojlandi. Xalifa Ma'mun davrida Bog'dod Akademiyasida Movarounnahr va Xurosondan donishmandlar, olimlar jalb etildi. Keyinchalik ilm-fanni yanada rivojlantirish uchun IX-X asrlarda Xorazmda "Ma'mun akademiyasi" va yangi-yangi madrasalar buniyod etildi. Akademiyalarda tarjimashunoslikka katta e'tibor berildi. Eron va Turon xalqlari tomonidan yaratilgan ko'plab asarlar arab tiliga tarjima qilindi. Kutubxonalar tashkil etishga katta e'tibor berildi. Kutubxonalar masjid, madrasada, qolaversa, shayx, vazir, olimu fuzalolar xonardonlarida ham mavjud edi. IX asr oxiriga kelib Eron, Movarounnahr, Xuroson mustaqillikka erishdi. Somoniylar davrida Eron, Movarounnahr, Xuroson, Marv, Kat, G'azna, Hirot, Samarqand, Buxoro kabi hududlarda barcha fuqarolar foydalanishi mumkin bo'lgan kutubxonalar – "Xazinat ul-hikma" larning soni ko'paydi. Natijada jamiyat o'rtaida ilm olishga e'tibor kuchaydi. XII asrga kelib musulmon madaniyati, ayniqsa, barkamol insonni tarbiyalash borasidagi fikr-mulohazalar o'tmishdan keskin farqlanar edi. Bu davr, ayniqsa, Movarounnahr va Xurosonda ilm-fan, madaniyat, ma'naviy-ma'rifiy sohada tub o'zgarishlar yuz bergen davr tarzida tarixga kirdi. Yevropa mamlakatlarida Renessans XIII-XV asrlarda amalga oshgan bo'lsa, Sharqda bunday voqeа IX-XII asrlarda ro'y bergen edi.

Sayfiddin Boxarziy ana shunday tarixiy davrda tug'ildi va uning dunyoqarashi shu davrda shakllanib, kamol topdi. Bu zoti sharifning tavalludi haqidagi ma'lumot XIII asrning qimmatli manbalaridan biri bo'lgan Imom Abu Abdulloh Shamsiddin Muhammad ibn Usmon Zahabiyning "Siyaru a'lamin nubalo" ("Mashhur daholar siyrati") asarida berilgan. Unda yozilishicha, Sayfiddin Boxarziy hijriy 586-yili sha'bon oyining 9-kunida tavallud topgan [15].

Bu haqdagi ma'lumot XV asr manbalaridan biri Ahmad ibn Mahmud Buxoriy "Tarixi Mullozoda" asarining ikkinchi qismida "Fathobodning ruhparvar va ruhangiz mozorlari zikri" haqidagi bandida keltirilgan. Ushbu manbada Sayfiddin Boxarziy quyidagicha tavsiflangan: "Al-olim al-omil al- muhaddis Shayx Sayf ad-din al-Haqq Abul-l-Maoliy Sa'id ibn al-Mutahir/Mutahhar ibn Said ibn Aliy al-Boxarziy" [16]. Bu tavsifdan ma'lum bo'ladiki, u kishi o'z davrining olimi, ilmiga amal qiluvchi inson va muhaddis bo'lgan. Ismlarining ma'nosidan anglash mumkinki, Boxarziy shayxlik martabasiga yetgan va Haq yo'li hamda dinning qilichi sifatida ulug'langan.

Manbalarda ta'kidlanishicha, Hazrat Shayx Sayfiddinning nasablari Hazrat Abu Bakr Siddiqa borib taqaladi: Hazrat Shayx Sayfiddin Boxarziy ibn Muhammadxoja ibn Sharif Atoxoja ibn Muhyiddinxoja ibn Muvaffaqxoja ibn Ahmadxoja ibn Sa'idxoja ibn Muhammadxoja ibn Is'hoqxoja ibn Abdulislomxoja ibn Muslimxoja ibn Nofe'xoja ibn Sa'dxoja ibn Tafil (Tufayl)xoja ibn Utbaxoja ibn Talhaxoja ibn Qosimxoja ibn Muhammadxoja ibn Hazrat Abu Bakr Siddiq raziyallohu anhudirlar [17]. Ma'lum bo'ladiki, Boxarziy xalifalar avlodidan bo'lgan.

"Tarixi Mullozoda" asarida Sayfiddin Boxarziyni hijriy 586-yil sha'bon oyida, milodiy 1190-yilning 11-sentyabrida tavallud topganligi ko'rsatilgan [18]. Bu faktning isboti sifatida quyidagi nazmiy misralar keltirilgan:

Tasavvufro chu ehyo kard ma'bud,
Sa'id ibn al-Mutahhar bud maqsud.
Valodat dar no'hum az mohi sha'bon,
Zi hijrat pansadu hashtodu shash bud [18.54].

Mazmuni:

Tasavvufni chu ehyo qilganda, (ya’ni tiriltirganda) ma’bud,
 Sa’id ibn al-Mutahhar edi maqsud.
 Valodati sha’bon oyining to’qqizi edi,
 Hijratdan besh yuzi sakson olti edi.

“Tarixi Mullozoda” asaridagi shu faktning izohida tarjimonlar Sh.Vohidov, B.Aminovlar Boxarziyning tavallud sanasi 9-sha’bonda 1190-yil 8-sentyabr deb bayon qilgan [18.95]. Ushbu fikrning manbasi sifatida Abd al-Qodir ibn Muhammad-Aminning “Majma’ al-Ansob va-l-ashjor” kitobining 47-beti ko’rsatilgan.

“Tarixi Mullozoda” asarida Boxarziyning nomlarini izohlash maqsadida quyidagi nazmiy parcha keltirilgan:

Kuniyoti shayx Abu-l- Maoli don,
 Nomi maymuni [19] (baxtiyor) on buzurg Sa’id.
 Laqabash Sayfi Haqqu davlatu din,
 Inchunin az salaf ba banda rasid [18.54].

Mazmuni:

Kuniyoti shayx Abu-l-Maoli bil,
 U ulug’ baxtli oti Sa’id.
 Laqabi Haqqu davlatu din Sayfi (qilichi)dir,
 Salafdan bandaga shunday xabar yetdi.

Sadriddin Ayniy o’zining “Namunayı adabiyoti tojik” asarida Sayfiddin Boxarziyning yuqorida ko’rsatilgan tavallud sanasini yozib, “Tarixi Mullozoda” asarini manba sifatida ko’rsatgan. Shuningdek, u Bartoldning “Turkiston” nomli majmuasi 160-161-betlarida Sayfiddin Boxarziy tavalludi hijriy 576-yil, deb yozilganligi haqida ma'lumot bergan [20]. Ayniyning fikricha, V.V.Bartold dan tashqari, O.D.Chechovich, O.Suxareva kabi olimlar ham “Tarixi Mullozoda” kitobidagi sanaga asoslangan. Demak, Shayxul Olam Sayfiddin Boxarziy hijriy 586-yili sha’bon oyida, milodiy 1190-yilning 8-sentyabrida Eronning Boxarz shahrida tavallud topgan.

Sayfiddin Boxarziy dastlabki bilimni o’zi tug’ilib o’sgan yurt – Eronda oldi. Keyinchalik Misr, Shom, Bog’dod, Iroq mamlakatlariga borib, ilm tahsilini davom ettirdi. Boxarziy yoshligida Makka va Madinaga Haj qilgan va o’n bir yoshida Bog’dodga kelib, Ibn Javziydan dars eshitgan. Shamsiddin Zahabiyning ma'lumot berishicha, Bog’dodda Suhravardiyidan saboq oldi. Sayfiddin Boxarziy zohiriyl ilmlarni, ya’ni fiqh, hadis, tafsir, kalom ilmini Xurosonda Muayyid Tusiy, Fazlulloh ibn Muhammad ibn Ahmad Nuqoniydan o’rganadi. Shayxulislom Burhoniddin Marg’inoniyning “Al-Hidoya” kitobi yuzasidan u kishining o’g’illari Jaloliddindan dars tingladi. Bog’dodda Ali ibn Muhammad Mavsliliy, Abul Futuh Husriy, Ismoil ibn Sa’dulloh ibn Hamdiy, Mushrif Xolisiydan, Naysoburda Ibrohim ibn Solor Xorazmiydan o’rgangan [21]. Bundan tashqari, Hamididdin Qazviniyning so’zlariga ko’ra, u Hirot va Nishopur madrasalarida tahsil olgan[22]. Bu yerda asosan diniy va huquqiy bilimlarni o’rgangan. Buxoroda Mahbubiy Kardariy, Abu Rushayd Asbahoniylardan ta’lim oldi [21.172].

Xulosa qilib aytganda, Sayfiddin Boxarziy XII asr oxiri XIII asr birinchi yarmida yashagan va o’sha davr muhiti ta’sirida mutafakkir sifatida shakllangan, keyingi davrlarga ma’naviy merosi orqali ko’plarga ta’sir etgan buyuk shaxsdir. Sayfiddin Boxarziy (1190-1261) mo’g’ullar bosqini davrida Movarounnahr zaminida islom dini, ilm-fan, madaniyat, ma’rifat, iqtisod

tanazzulga uchragan bir davrda yashadi. U xalqni og‘ir bir vaziyatda ham ruhan, ham ma’nан, moliyaviy va ijtimoiy himoya qildi. Tarixiy dalillar ko‘rsatadiki, asosan bosqinchilar mustamlaka qilgan hududlarda o‘zlarining dini va madaniyatini singdiradi, lekin komil inson timsoli bo‘lgan Sayfiddin Boxarziyning sa’y-harakati va dono siyosati bilan mo‘g‘ullar islom dinini qabul qilib, Shimoliy Kavkazdan Sibircacha bo‘lgan katta hududlarda islom dinini targ‘ib qilganlar. Shuning uchun ham bu tabarruk zotga Shayxul Olam degan faxrli unvon berildi. Ustozi “Shayxi valiytarosh”, ya’ni Najmiddin Kubro tavsiyasi bilan Buxoroga 1220-yilga kelib, umrining oxirigacha (41 yil) yashadi va bu tabarruk zotning sharofati bilan Buxoro yetti sharif shaharning biriga aylandi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Комилов Н. Тасаввуф. – Тошкент: Ўзбекистон, 2009. – Б.448; Ҳазратқулов. М. Тасаввуф. – Душанбе: Маориф, 1988. – Б. 123.
2. Абулҳасан Ҳужвирий. Кашф ул маҳжуб. – Техрон: Теббиён, Фаридун Осиёбий Ишқий Зинжоний таҳрири остида. (А.А. Болтаев таржимаси), 2003. – Б.23; Али ибн Усман аль-Джулаби аль-Худжвири. Раскрытие скрытого за завесой для сведущих в тайнах сердце (Кашф аль-махжуб ли арбаб аль кулуб) / Перевод с английского А.Орлова. Изд. перв. – Москва: Единство, 2004. – Б.107-177; Наврӯзова Г., Рахматова Х. Нақшбандия тушунчалари генезеси. – Бухоро: Бухоро. – Б.160.
3. Усмон Турар. Тасаввуф тарихи. – Тошкент: Истиқлол, 1999. –Б.52.
4. Ҳамидхон Исломий. Султон ул-Орифин Ҳожа Аҳмад Яссавий. – Тошкент: Фан, 2005. – Б.24; Абдураҳмон Гўзал. Яссавий Фақрномаси. – Тошкент: Наврӯз, 2014. – Б.265; Аҳмад Яссавий, Сулаймон Боқирғоний. Ҳикматлар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2013. – Б.272; Иброҳим Ҳаққул. Аҳмад Яссавий. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат, 2001. – Б.63.
5. Ҳожи Абдулғафур Абдурраззоқ Бухорий. Тариқат одблари. (Нақшбандия таълимоти асосида). – Тошкент: 2003; Садриддин Салим Бухорий. Баҳоуддин Нақшбанд ёки етти пир. -Тошкент: Янги аср авлоди, 2009.
6. Фалсафа асослари. –Тошкент: Ўзбекистон, 2005. – Б.384; Ҳусниддинов З. Ислом йўналишлар, мазҳаблар, оқимлар. – Тошкент: 2000; Ислам на территории бывшей Российской империи: Энциклопедический словарь. Том I / Составитель и ответственный редактор С.М.Прозоров; научные консультанты – О.Ф.Акимушкин, В.О.Бобровников, А.Б. Халидов; указатели – А.А.Хисматулин. М.: Восточная литература, 2006. 655 с.
7. Жаъфар Ҳолмўминов. Нақшбандия таълимоти ва Марказий Осиё халқлари маънавий бирлиги. –Тошкент: Yangi nashr, 2018. – Б.28; Ёқубжон Исҳоқов. Нақшбандия таълимоти ва ўзбек адабиёти. Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. – Тошкент: 2002.
8. Абдулҳусайн Зарринқуб. Ҷустучу дар тасаввуфи Эрон. – Душанбе: Ирфон, 1992. – С.394-398; Ҳасан Пўлатов, Мамаджон Маматов. Тасаввуф тарихидан лавҳалар. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий қутубхонаси нашриёти, 2011. – Б.320.
9. Бертельс Е.Э. Суфизм и суфийская литература. – М.: Издательство восточной литературы, 1965. – С.54.
10. Исҳоқова З. Шайх Нажмиддин Кубро. – Тошкент: Ўзбекистон, 2013. – Б.8.
11. Нажмиддин Комилов. Тасаввуф. – Тошкент: Мовароуннахр-Ўзбекистон, 2009. – Б.419.
12. Усмон Турар. Тасаввуф тарихи. – Тошкент: Истиқлол, 1999. – Б.75.

13. Доктор Тоҳира Хушҳол Дастжердий. Нажмиддин кубро тасаввуфининг ижтимоий аҳамияти. Сино. 2001. 6 сон. – Б.28-29.
14. Наврӯзова Г.Н. Нақшбандия камолот йўли. – Тошкент: Фан, 2007. – Б.40-41.
15. Имом Абу Абдуллоҳ Шамсиддин Муҳаммад ибн Усмон Заҳабий. Машҳур даҳолар сийрати (Сияру аъламиин нубало). – Тошкент: Ҳилол, 2015. – Б.171.
16. Аҳмад ибн Маҳмуд Бухорий. Муъин ал-Фуқаро. Тарихи Муллозода (Бухоро мозорлари зикри). – Тошкент: Янги аср авлоди, 2009. – Б.53.
17. Садриддин Салим Бухорий. Бухоронинг табаррук зиёратгоҳлари. – Бухоро: Дурдона, 2012. – Б. 105-112.
18. Аҳмад ибн Маҳмуд Бухорий. Муъин ал-Фуқаро. Тарихи Муллозода (Бухоро мозорлари зикри). – Тошкент: Янги аср авлоди, 2009. – Б. 53.
19. Навоий асарлари луғати. – Тошкент: Faфур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б.353.
20. Садриддин Айний. Намунаи адабиёти тожик. – Душанбе: 2010. – Б. 37.
21. Имом Шамсиддин Заҳабий. Машҳур даҳолар сийрати (Сияру аъламиин нубало). – Тошкент: Ҳилол нашр, 2017. – Б.171.
22. Сайфиддин Боҳарзий/ Ислом энциклопедияси. -Тошкент: Давлат илмий нашриёти, 2017. – Б. 400.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

Nº 12 (4) – 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb
muammolari” elektron jurnali**
2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli
guvohnoma bilan davlat ro’yxatiga olingan.
Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com
Bog’lanish uchun telefonlar:
(99) 602-09-84 (telegram).